O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TABIATSHUNOSLIK” FAKULTETI

«GEOGRAFIYA VA UNI O’QITISH METODIKASI» KAFEDRASI

**“Umumta’lim maktablarining 9-sinfida “Dunyoning siyosiy kartasi” mavzusini o’qitish metodikasi” mavzusidagi**

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: «Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari» ta’lim yo’nalishi bitiruvchi 4 kurs “B” guruh talabasi Turdiyeva Gulnora Baxtiyorovna

**Ilmiy rahbar: katta o’qituvchi. Abdiyeva Z.A.**

**Navoiy-2013**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**"TABIATSHUNOSLIK" FAKULTETI**

**«GEOGRAFIYA VA UNI O'QITISH METODIKASI» KAFEDRASI**

**"Umumta'lim maktablarining 9-sinfida "Dunyoning siyosiy kartasi" mavzusini o'qitish metodikasi" mavzusidagi**

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: «Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari» ta'lim yo'nalishi bitiruvchi 4 kurs "B" guruh talabasi Turdiyeva Gulnora Baxtiyorovna

**Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi. Abdiyeva Z.A.**

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

___________ sonli bayonnomasi «_____» _________________ 2013 yil

**Navoiy-2013**

2

Navoiy davlat pedagogika instituti
Tabiatshunoslik fakulteti «Geografiya va uni o`qitish metodikasi»
kafedrasining 1-sonli yig`ilish bayonnomasidan

**K O' C H I R M A**

**Navoiy shahri** **27 avgust 2012 yil**

**Qatnashdilar**: dotsent Yu.B. Raxmatov, g.f.n. katta o`qituvchi S. Shodiev, B.X. Kalonov, katta o`qituvchilar: Z.A. Abdiyeva, M.M. Qodirova, X.T. To'xtayeva, Sh. Sh. Norov, o`qituvchilar: Yo.R. Bo'ronov, A. Jonzoqov, N.J. Muxammedova.

**K U N T A R T I B I:**

2012-2013 o'quv yilida "Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari" ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabalarining bitiruv malakaviy ishlari mavzulari va ilmiy rahbarlarini tasdiqlash to`g'risida

**E S H I T I L D I:**

**Kafedra mudiri, dotsent Raxmatov Yu.B:** Bitiruv malakaviy ishi mavzulari Oliy va o`rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 9 iyundagi № 225- sonli buyrug`iga binoan **"Oliy o`quv yurtlarida bakalavr bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo`yiladigan talablar"** asosida tanlangan.

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo`nalishi IV-kurs „B " guruh talabasi Turdiyeva Gulnora Baxtiyorovna mavzular orasidan "Umumta'lim maktablarining 9-sinfida "Dunyoning siyosiy kartasi" mavzusini o'qitish metodikasi" mavzusini tanladi va uning ilmiy rahbari sifatida Abdiyeva Zulxumor Agzamovna belgilandi.

**QAROR QILINDI**:

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo`nalishi IV-kurs "B" guruh talabasi Turdiyeva Gulnora Baxtiyorovnaga Umumta'lim maktablarining 9-sinfida "Dunyoning siyosiy kartasi" mavzusini o'qitish metodikasi mavzusi berilsin va ilmiy rahbar sifatida Abdiyeva Zulxumor Agzamovna tayinlansin.

**Kafedra mudiri:** 3 **dots. Yu.B. Raxmatov**
**Kotib:** **Yo.R. Buranov**

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Oliy o'quv yurti

**Tabiatshunoslik fakulteti Geografiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasi Geografiya va Iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishi IV kurs "B" guruhi**

**Tasdiqlayman ______________**
**Kafedra mudiri _________________**
**2012 yil __________**

## MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO'YICHA TOPSHIRIQ

**Talaba:** Turdiyeva Gulnora Baxtiyorovna

**1. Bitiruv ishining mavzusi** "Umumta'lim maktablarining 9-sinfida "Dunyoning siyosiy kartasi" mavzusini o'qitish metodikasi"

"27" avgust 2012 yil. Kafedra majlisida tasdiqlangan.

**2. Bitiruv ishini topshirish muddati** 31 may 2013 yil

**3. Bitiruv ishini bajarishga doir boshlang'ich ma'lumotlar________________**

______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
________________________________________________________

4. **Hisoblash – tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro'yxati)**

______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________

5. **Chizma ishlar ro'yxati (chizmalar nomi aniq ko'rsatiladi)**

______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
4
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________
________________________________________________________

**6. Bitiruv ishi bo'yicha maslahatchi(lar)**

| №. | Bo'lim mavzusi | Maslahatchi o'qituvchi I.F.Sh. | Imzo, sana | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Topshiriq berildi | Topshiriq bajarildi |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |

7. **Bitiruv ishini bajarish rejasi**

| №. | Bitiruv ishi bosqichlarining nomi | Bajarish muddati (sana) | Tekshiruvdan o'tganlik belgisi |
|---|---|---|---|
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |

Bitiruv malakaviy ishi rahbari: Abdiyeva Zulxumor Agzamovna ____________
(imzo)

Topshiriqni bajarishga oldim: Turdiyeva Gulnora Baxtiyorovna ___________
(imzo)

Topshiriq berilgan sana 2012 yil 5 sentabr

**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**Tabiatshunoslik fakulteti**
**«Geografiya va uni o`qitish metodikasi» kafedrasi**

2013 yil "28" may №10-sonli yig`ilish bayonnomasidan

**K O' C H I R M A**

**Qatnashdilar**: Kafedraning barcha professor-o'qituvchilari

**K U N T A R T I BI:**

2012-2013 o'quv yli "Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari" ta'lim yo'nalishi bo'yicha yozilgan bitiruv malakaviy ishlar muhokamasi va ularni himoyaga tavsiya qilish to'g'risida

**E S H I T I L D I:**

**Bitiruvch**i Turdiyeva Gulnora Baxtiyorovnaning

**Mavzusi**: "Umumta'lim maktablarining 9-sinfida "Dunyoning siyosiy kartasi" mavzusini o'qitish metodikasi"

**Ilmiy rahbar:** Abdiyeva Zulxumor Agzamovna

Bitiruv malakaviy ishi Davlat ta'lim standartlari va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablariga mohiyat va mazmun jihatdan mos keladi.

**Q A R O R Q I L I N D I:**

**Bitiruvchi** Turdiyeva Gulnora Baxtiyorovnaning "Umumta'lim maktablarining 9-sinfida "Dunyoning siyosiy kartasi" mavzusini o'qitish metodikasi" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi Davlat Attestatsiya Komissiyasiga himoya uchun tavsiya etilsin.

**Kafedra mudiri:** **g.f.n., S.R. Shodiev**
**Kabinet mudirasi:** **Sh.U.Fayziyeva**

**Davlat attestatsiya komissiyasining**

**RAISIGA**

Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiatshunoslik fakulteti "Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari" ta'lim yo'nalishi IV- kurs " B " guruh talabasi
Turdiyeva Gulnora Baxtiyorovnanning "Umumta'lim maktablarining 9-sinfida "Dunyoning siyosiy kartasi" mavzusini o'qitish metodikasi mavzusidagi Bitiruv malakaviy ishi himoya qilish uchun yuborildi.

Reyting qaydnomasidan ko'chirma, Bitiruv malakaviy ishi rahbarining taqrizi,

kafedraning rahbarni tasdiqlash va ishni himoyaga tavsiya etish haqidagi xulosasi,

ichki va tashqi taqrizlar ilova qilinadi.

**Fakultet dekani:** **b.f.n. Qo'shoqov A.J.**

**Navoiy davlat pedagogika instituti, «Geografiya va uni o`qitish metodikasi» kafedrasining Bitiruv malakaviy ishi haqidagi**

**XULOSASI**

IV kurs "B" guruh talabasi Turdiyeva Gulnora Baxtiyorovnaning "Umumta'lim maktablarining 9-sinfida "Dunyoning siyosiy kartasi" mavzusini o'qitish metodikasi mavzusidagi Bitiruv malakaviy ishi kafedra yig'ilishida muhokama qilingan va Davlat Attestatsiyasi komissiyasiga himoyaga tavsiya etiladi.

**Kafedra mudiri:** 7 **g.f.n., S.R. Shodiev**

MUNDARIJA

**KIRISH………………………………………………………………………**

**I.BOB. DUNYONING SIYOSIY KARTASI MAVZUSINI O'RGANISHDA NOANANAVIY DARSLARNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI…………………………………………………**

1.1. Jahoni mamlakatlarini o'rganishning maqsad, vazifalari va o'rganish metodikasi…………………………………………………………………………

1.2.Dunyoning siyosiy kartasi mavzusini o'qitishda amaliy ko'nikma, malakalarni va dunyoqarashini shakllantirish…………………………………

**Asosiy qism.**

**II.BOB. DUNYONING SIYOSIY KARTASI MAVZUSINI O'QITISHDA NOANANAVIY DARSLARNI TASHKIL ETISHNING SAMARALI METOD VA VOSITALARI……………………..…………………………**

2.1. Dunyoning siyosiy kartasi movzusini o'rganishda noananaviy metodlarni tashkil etishning samarali usul va vositalari…………………………………...

2.2.Jahonning siyosiy kartasi mavzusini o'qitishda "Zinama-Zina" o'yini 1-soatli noananaviy dars ishlanmasi…………………………………………….

2.3.Jahon mamlakatlari klassifikatsiyasi mavzusida 1-soatli noan'anaviy dars ishlanmasi…………………………………………………………………

**III.XULOSA……………………………………………………………...**

**IV. ADABIYOTLAR …………………………………………………**

## KIRISH

***Mavzuning dolzarbligi:*** Umumta'lim maktablarida o'qitiladigan Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fanining samaradorligini oshirishning yo'llari yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan noan'anaviy dars usullari va ularni qo'llash, ta'lim jarayoniga tizimli yondashish, noan'anaviy ta'limning an'anaviy ta'limdan farqli tomonlari kabi masalalar ochib berilgan. Mening bitiruv malakaviy ishim "Umumta'lim maktablarining 9-sinfida "Dunyoning siyosiy kartasi" mavzusini o'qitish metodikasi mavzusida bo'lib, umumta'lim maktablarida Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasini noan'anaviy usullaridan foydalanib dars o'tish Ta'lim sohasidagi yo'zbergan o'zgarishlar qatorida pedagogik jarayonning mazmun mohiyati metodlar ayniqsa keskin o'zgardi. Yangi pedagigik texnologiyalar amalga tadbiq qilina boshlandi, hozirgi davr ta'lim jarayonini yangi sifat ko'rsatkichlariga olib chiqish mumkin bo'lgan metodlar tizimiga aylandi. Jahonda rivojlangan davlatlarning tajribasi ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda o'quvchi – yoshlarning bilim olishiga bo'lgan qiziqishi va ehtiyojlarini qondiribgina qolmasdan, yuqori bilimga ega bo'lgan iqtidorli yoshlar yetishtirib berish vazifalarini ham hal etmoqda. O'zbekistonda bu borada so'nggi yillarda anchagina diqqatga sazovor ishlar amalga oshirildi. Eng avvalo «Ta'lim to'g'risidagi qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabo'l qilindi. Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida to'rgan ta'lim - tarbiya samaradorligini oshirish jahon ta'lim standartlari darajasida bilim berish orqali har tomonlama yetuk ijodkor ma'naviy boy, kasb-hunarli, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalangan, o'z mustaqil fikriga ega barkamol shaxsni kamolga yetkazish kabi vazifalarni hal etishda ta'lim muassasalarining pedagogik jamoasi xususan har bir fan o'qituvchisi o'z pedagogik faoliyatini tubdan o'zgartirishi lozim.

Zamon talabiga muvofiq holda har bir fan o'qituvchisi o'zining mutaxassisligini chuqur o'zlashtirgan, pedagogik-psixologik hamda metodik bilim, ko'nikma va malakalarni puxta egallagan, ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshiradigan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor va ularni ta'lim jarayonida qo'llay olish malakasiga ega bo'lish lozim.

***Kutilayotgan ilmiy yangiliklar:*** Malakaviy bitiruv ishning *ilmiy yangiligi sifatida* Mamlakatimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq umumiy o’rta ta'limning barcha bo’g’inlarida o’quvchilarning muntazam bilim olishi, ularda mustaqil ijodiy fikrlash, kasb tanlashga va atrof muhitga ongli munosabatni hosil qilish, milliy va umum bashariy qadriyatlarni hurmat qilish o’z vataniga, xalqiga sadoqat, mehr — muhabbat ruhida tarbiyalash tamoyillari aks ettirilgan. Ushbu pedagogik g’oya ta'lim tizimi oldiga: ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan hududiy demokratik davlat qurilishi jarayonlariga moslash; kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy — iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan jamiyat ehtiyojlaridan, fan madaniyat texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish; ta'lim oluvchilarni ma'naviy –axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va uslublarini ishlab chiqish hamda joriy etish vazifalarini ko’ndalang qilib qo’ydi.

Shuningdek, Bitiruv malakaviy ishimda umumta’lim maktablarida o’qitiladigan Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fanining samaradorligini oshirishning yo’llari yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan noan’anaviy dars usullari va ularni qo’llash, ta’lim jarayoniga tizimli yondashish, noan’anaviy ta’limning an’anaviy ta’limdan farqli tomonlari kabi masalalar ochib berilgan.

***Olingan natijalarni amaliyotda foydalanishga tavsiya etish:*** Bitiruv malakaviy *ishining asosiy natijalaridan* “Umumta’lim maktablarining 9-sinfida “Dunyoning siyosiy kartasi” mavzusini o’qitish metodikasi” mavzusida bo’lib, umumta’lim maktablarida Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasini siyosiy predmeti hisoblangan bu movzuni noan’anaviy usullaridan foydalanib dars o’tish bilan bog’liq. Malakaviy bitiruv ishim kirish, asosiy qism, va xulosadan iborat bo’lib, uning I bobida **“DUNYONING SIYOSIY KARTASI MAVZUSINI O’RGANISHDA NOANANAVIY DARSLARNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI’’** 2 ta kichik mavzular asosida yoritilgan bo’lsa, asosiy qismning II bobida **“DUNYONING SIYOSIY KARTASI MAVZUSINI O’QITISHDA NOANANAVIY DARSLARNI TASHKIL ETISHNING**

10

**SAMARALI METOD VA VOSITALARI'** ni 3 ta kichik mavzular asosida noan'anaviy dars ishlanmalaridan foydalanib atroflicha ochib berilgan. Dars jarayonida noan'anaviy darslardan "Aqliy hujum", "Zinama-Zina","Blist so'rov", "B.B.B. jadvali", krasvord, test metodidan foydalandim. Bu kabi darslarni ko'proq yuqori sinflarda qo'llash o'rinli chunki yuqori sinf o'quvchilarning fikrlash doirasi, bilim saviyasi, iqtidori ancha yuqori bo'lib quyi sinflarda olgan tayanch bilimlarga asoslangan hodda berilgan muammoni yecha oladilar. Ushbu illmiy ishimda nihoyatda qiziqarli va izlanishni talab etadigan, o'quvchini o'z ustida ishlashga majbur etadigan "Jahon mamlakatlari klassifikatsiyasi" mavzusida noan'anaviy 1-soatli dars ishlanmasini havola etdim. Bunda "Vizual, Insert, Birgalikda o'qish, Muommoli topshiriqlar usuli, Texnikali blits so'rov, Taqdimotli ma'ro'za, Aqliy hujum", va test noan'anaviy dars metodidan foydalandim.

Malakaviy bitiruv ishimni yozishda ilmiy maslahatlari bilan yordam bergan ilmiy rahbarim katta o`qituvchi Z.A. Abdiyeva, dotsent B.Kalonov, va geografiya kafedrasi jamoasi, ustozlarimga o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

# I.BOB. DUNYONING SIYOSIY KARTASI MAVZUSINI O’RGANISHDA NOANANAVIY DARSLARNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI.

## 1.1. Jahoni mamlakatlarini o’rganishning maqsad, vazifalari va o’rganish metodikasi.

Maktab o’quv predmetlari orasida jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi o’quvchilarni jahon mamlakatlari bilan tanishtiruvchi yagona kurs hisoblanadi. Kursni o’rganish jarayonida o’quvchilar: rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashishi va rivojlanishi; xalqaro voqea va munosabatlarda bo’ladigan jarayonlarni,hodisalarni to’g’ri anglashda: mamlakatlar guruhi va ayrim mamlakatlar misolida o’quvchilarni ular xo’jaligiga xos xususiyatlarni bilib olishga yordam beradi; Kursni o’rganish jarayonida turli tipdagi mamlakatlarda ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish qonunlarini bilib oladi. Kurs asosini bir necha umumiy tushunchalar tashkil qiladi. Ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: Dunyo siyosiy xaritasi haqidagi tushunchalar. Bular: “Suveren “Davlat hududi”, "Davlat chegarasi". "Unitar davlat"."Federal davlat"."Mamlakatlar guruhi.”Hozirgi zamon siyosiy xaritasi shakillanishi o’zoq tarixiy jarayon” va x.k.

Turli sotsial - iqtisodiy turdagi rivojlangan. rivojlanayotgan. MDX mamlakatlari xo’jaligi . aholisi. iqtisodiy geografik xususiyatiga xos tushunchalar. Kursni o’rganish jarayonida o’quvchilarda mamlakat haqidagi umumiy tushuncha shakllanadi va sekin-asta ularda mamlakatlarga iqtisodiy geografik tavsif berish ko’nikmasi takomillashib boradi. Mamlakatlarga tavsif berishda o’quvchilari tabiiy geografik. iqtisodiy kartalarni ykish va ulardagi mavjud bilimlarni ola bilish ko’nikmalariga tayanadilar. Ular statistik ma’lumotlardan jahoni mamlakatlariga oid bilimlarni ola bilish ko’nikmalariga ham ega bo’ladilar.

Mamlakatlarni o’rganish dastavval rivojlangan kapitalistik mamlakatlar o’rganiladi. Ular yirik kapitalistik mamlakatlar va bir muncha kichikrok, ammo rivojlangan kapitalistik mamlakatlar o’rganilish tarzida amalga oshiriladi. Kichik


12

kapitalistik mamlakatlarga Garbiy Yevropa mamlakatlari va "Ko’chirilgan kapitalizm" mamlakatlari bular: Kanada. Avstraliya. Yangi Zelandiya va boshkalar kiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlar 3 ta guruxga. yani regionlarga karab bo’lib o’rganiladi. Bular: Osiye. Afrika , Lotin Amerikasi mamlakatlari. Jahoni iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi O’zbekiston iqtisodiy geografiyasi bilan chambarchas boglikdir. O’zbekistan iqtisodiy geografiyasida o’rganilgan aksariyat bilim va tushunchalar bu kursda yanada mustahkamlanadi. O’quvchilarning bu ko’nikmalar bilan qurollanishi jahon iqtisodiy geografiyasida boshqa ko’nikmalarni egallashlariga yerdam beradi. Bular: mamlakatlarni guruhlay olish turli tipdagi mamlakatlarni qiyoslay olish, aholi va xo’jalikni belgilariga ko’ra ajratish, turli sotsial-iqtisodiy to’zumga ega bo’lgan mamlakatlardagi aholi Xo’jalik tarmoklarini qiyoslash va x.k.

Jahoniining umumiy ta’rifi deb nomlangan 1-qism o’z ichiga "Jahonining xozirgi siyosiy xaritasi”, "Xalqaro munosabatlarning dunyo siyosiy xaritasiga ta’siri’’ jahoni mamlakatlarining davlat to’zumi mavzularini oladi. Bu mavzularni o’rganishda egallangan nazariy materiallar, jahonining regional qismini o’rganishda qullaniladi va yanada oydinlashadi. Jahonining ijtimoiy va iqtisodiy geografiyasini o’rganishning asosiy obektlaridan biri mamlakatlar hisoblanadi Chunki siyosat va iqtisod bir-biri bilan o’zviy bog’lik jarayonlar hisoblanadi, Shu jihatdan olganda bu kurs bir vaqtning o’zida siyosiy geografiyaning ham o’rnini bosadi.

Mamlakatlar iqtisodiy to’zumi va ularni rivojlantirish omillari haqida gapirilganda atbatta uning siyosiy ahamiyati haqida ham to’xtalish maqsadga muvofiq. Kursni o’rganish maqsadlarida siyosiy geografik elementlarining ham ishtirok qilishi o’quvchilarni siyosiy savodxonligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu borada kundalik matbuot materiallari. televideniyaning roli cheksizdir. Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi mazmuni dunyoda ro’y berayetgan kundalik materiallar bilan chambarchas bog’lik. Bu materiallar darslikdagi materialni to’ldirishda ayrim xollarda esa illyustratsiya vazifasini o’taydi. Eng muhimi darsda kundalik matbuot materiallaridan foydalanish o’quvchilarining siyosiy ongi va dunyoqarashini shakllantirishda cheksiz ahamiyatga ega.

Yukori sinf o’quvchilari o’z fikr va mulohazalarini amalda bajarilishiga

qiziqardilar. Bu kurs uchun umumlashtiruvchi bilimlar katta ahamiyatga ega. Jahoni iqtisodiy geografiyasidagi aksariyat bilimlar bevosita O’zbekiston iqtisodiy geografiyasida egallangan bilim. ko’nikmalar bilan boglik. Masalan: O’zbekistonning iqtisodiy tarakkiyetida xorijiy mamlakatlarning rolini yeriting? yeki O’zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan olib borayetgan iqtisodiy alokalaridagi asosiy shakllar nimalardan iboratligini bilish xar ikki kursning o’zviy boglanganligini bildiradi. Xar qanday bilim va ko’nikmaning muvaffakiyatli shakllanishi avvalo iqtisodiy geografik tushuichalarning shakllanishi bilan chambarchas boklik. Jahoni iqtisodiy gegrafiyasidagi aksariyat umumiy tushunchalar deduktiv yo’l bilan o’rganiladi va kursni o’rganish jarayonida bu tushunchalar mazmunan boyib, birmuncha oydinlashadi. Yeki ular "umumiydan yakkaga" prinsipi asosida shakllantiriladi .Kursdagi umumiy ushunchalarni shakllantirishdagi eng muhim shart-sharoit ilgari egallangan bilimlarga tayanishdir

Tajribalar shuni kursatmokdaki, bu kurs mavzularini o’rganishda suxbatning alohida urni bor. Ayniqsa darslik matni, undagi jadvallar. raqamli materiallar. kartosxemalar va boshka kypgazmali materiallar bilan ishlashda uning urni katta. Masalan "Jahoni siyosiy xaritasi" mavzusini o’rganishda karta asosida suxbat uyushtirish yaxshi natijalar beradi.

Reproduktiv metod ham bu kursda keng qo’llanilish imkoniyatlariga ega Kurgazmali Izoxli metadda o’quvchilarida iqtisodiy-geografik ko’nikmalar shakllantirish jarayoni bir muncha zaif kechali. Reproduktiv metodda bu kamchilik juda ham ko’p sodir bo’ladi. O’quvchilari o’qituvchi topshirigi asosida mustakil bilimlarni egallaydilar. Ular oldingi bajarilgan topshiriq va savollarga uxshash bo’lgan vazifalarni mustakil bajaradilar, u yeki bu matn mazmuni bo’yicha rejalar to’za oladilar. Iqtisodiy-geografik kartalar asosida mamlakatlar yeki uning qismlariga tarif bera oladilar. Reproduktiv metod o’quvchilarida tashkilotchilik xislatlarini ham tarbiyalaydi. O’qituvchi bu metodni qo’llash jarayonida boshka metodlardan, xususan ogzaki bayen. kurgazmali metodlardan ham unumli foydalanadi. Reproduktiv metod samaradorligini oshirishda xar bir mavzu uchun topshiriqlar. savollar tizimini ishlab chikish yaxshi natijalar beradi. O’quvchilarida bilimlarning oshib borishi bilan bu

14

metodga bo’lgan talab ham oshib boradi. Kursning regionlar qismini o’rganishda bu metod juda kul keladi. Masalan Afrika mamlakatlarini o’rganishda o’quvchilari dikkatiga quidagi jadvalni mustakil tuldirish topshiriladi.

Kursning aksariyat mavzulari muammoli bayen metodi bilan ukitilishni takozo qiladi. Bunda o’qituvchi muammoni kuyadi va uni o’zi yechib kursatadi. Muammoga javob izlash jarayonida o’quvchilari muammoli vaziyatta duch keladilar. O’qituvchi tomonidai kuyilgan muammoli savolga o’quvchilaridagi mavjud bilimlar yetishmasligi kerak. Agar ular bu savolga tugridan-tugri javob berib kuysalar. Kuyilgan savol muammoli vaziyat xosil kilmaydi va bu savol o’z navbatida muammoli bo’la olmaydi. Bu megodning eng ahamiyatli tomoni shundaki. o’quvchilari muammoli metod orqali muammonint ilmiy yechilish yo’llarini, bilimlarning mantikiy alokadorligini, butun muammoni yechishdagi bosqichlarni bilib oladilar va egallaydilar.

Muammoli metodning eng muhim xususiyatlaridan biri kuyilgan savolni yechish uchun gepoteza(faraz) to’ziishdan. ushbu farazni yechish yo’llarini izlash. xulosalar kilishdan iborat. O’qituvchi muammoni kuyadi. farazni tushuntiradi. xayelan eksperiment qilib kuradi, uni yechishning turli variantlarini ilgari suradi va xulosalar qiladi. Nixoyat kadamma-kadam muammoni yechiщ yo’llariga erishadi.O’quvchilari esa yechimning mantikiyligini ko’zatadilar, ilgari surilgan farazlarning tutriligini nazorat qiladilar, isbot va dalillarning nakadar puxtaligini yana bir bor tekshirib kuradilar. Va shu tariqa bu metodning afzalligini. barcha materialini o’zlashtirishdagi rolini bilib oladilar. Jahoni iqtisodiy geografiyasini o’qitishda takiikot metodi ham alohida urniga ega Tadqiqot metodi eng muhim funksiyalarni bajaradi. Bu metodning asosiy maqsadi o’quvchilarida u yeki bu muammoni yechishda izlanuvchanlik. ijodiy faoliyatni rivojlantirishdan iborat. O’quvchilari fan va jamiyat tomonidan yechilgan. ammo o’quvchilari uchun notanish bo’lgan muammolarni yechadilar. Tadqiqot metodida tavsiya etiladigan topshiriqlar shaklan xilma-xil bo’lishi mumkin. Bunday topshiriqlar kiska vaktda yechiladigan, uyga vazifa qilib beriladigan. butun bir darsni egallaydigan, xatto ma’lum bir davr (xafta oy) talab qiladigan topshiriqlardan ham iborat bo’lishi mumkin. Qisqasi tadqiqot metodi asosida bajariladigan xar bir




topshiriq ma’lum bosqichlarda amalga oshirilishi yoki bajarilishi mumkin.

Bu bosqichlar quidagilardan iborat bo’lishi mumkin. Bo’lim “Dunyoning siyosiy kartasi’ni o’rganish dan boshlanadi. Mavzuning asosiy maqsadi o’quvchilarini jahoni siyosiy kartasining tashkil topishi, mamlakatlarning xilma-

xilligi, mamlakatlar guruxlari va mikdori, iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar. xalqaro munosabatlar, ikkinchi jahoni urushi va 1991 yildan keyingi davrdagi o'zgarishlar, jahoni davlatlarining davlat to'zumi, ularning boshkaruv shakllari. ma'muriy xududiy tuziilish shakllari va boshka xususiyatlar bilan tanishtirishdan iborat. Ushbu mavzuda o'quvchilari dikkatiga quidagi jadvallarni mustakil tuldirish topshiriladi. Bunday topshiriqlar dunyo siyosiy kartasi mavzusini mukammal egallash imkoniyatini beradi.

Dunyo siyosiy kartasidagi o'zgarishlarni o'qituvchi raxbarligida o'quvchilarining mustakil ishlari orqali bajarish samarali natijalar berishi tajribalardan isbotlangan. Siyosiy kartadagi o'zgarishlarni taxlil kilish orqali ular turli tipdagi mamlakatlarni ajratadilar va ularning xar biriga qisqacha tavsif beradilar. Ayniqsa siyosiy kartadagi o'zgarishlarni quidagi bosqichlarga (I - jahoni urushidan keyin, 2- jahoni urushidan keyin va 1990- 1991 yillardan keyingi ) bo'lib o'rganish ko'zlangan maqsadga erishishda katta ahamiyatga -) e ga Bu mavzu o'quvchilarini dunyoda bo'layotgan xalqaro voqealar bilan ham tanishtirish imkoniyatini beradi.



17

## 1.2.Dunyoning siyosiy kartasi mavzusini o'qitishda amaliy ko'nikma, malakalarni va dunyoqarashini shakllantirish.

Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini o'rganish jarayonida o'quvchilarda mamlakat haqidagi umumiy tushuncha shakllanadi va sekin asta ularda mamlakatlarga iqtisodiy geografik tavsif berish ko'nikmasi takomillashib boradi. Mamlakatlarga tavsif berishda o'quvchilar tabiiy geografik, iqtisodiy kartalarni o'qish va ulardagi mavjud bilimlarni ola bilish ko'nikmalariga tayanadilar. Ular statistik ma'lumotlardan jahon mamlakatlariga oid bilimlarni ola bilish ko'nikmalariga ham ega bo'ladilar. Ular yirik tayanch guruhidagi mamlakatlar va bir muncha kichikroq, ammo rivojlangan tayanch guruhidagi mamlakatlar o'rganilish tarzida amalga oshiriladi. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston iqtisodiy geografiyasida o'rganilgan aksariyat bilim va tushunchalar bu fanda yanada mustahkamlanadi. Bular: hudud yoki rayonning iqtisodiy geografik o'rni, mehnat resurslari, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, bozor iqtisodiga oid bilimlar, ishlab chiqarishni tashkil qilish shakllari, mehnat unumdorligi, tannarx va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiy geografiyasida egallangan ayrim ko'nikmalar jahon iqtisodiy geografiyasida yanada takomillashadi va mustahkamlanadi. Bularga xarita va raqamli materiallar asosida ishlab chiqarish tarmoqlariga, iqtisodiy rayonlarga, hududlarga ta'rif berish, sabab-aloqadorlik aloqalarini o'rnata olish, aholi, xo'jalik tarmoqlariga oid xususiyatlarni aniqlab olish va boshqalar kiradi. O'quvchilarning bu ko'nikmalar bilan qurollanishi jahon iqtisodiy geografiyasida boshqa ko'nikmalarni egallashlariga yordam beradi. Bular: mamalakatlarni guruhlay olish, turli tipdagi mamlakatlarni qiyoslay olish, aholi va xo'jalikni belgilarga ko'ra ajratish, turli ijtimoiy-iqtisodiy to'zumga ega bo'lgan mamlakatlardagi aholi, xo'jalik tarmoqlarini qiyoslash va h.k. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi 3 ta qismdan: Dunyoning umum iqtisodiy-geografik obzori, Jahonning regional tavsifi va bilimlarni umumlashtirish hamda insoniyatning global muammolari mavzularidan tashkil topgan. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasining regional qismida mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy belgilariga

ko’ra ya’ni rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar belgilariga ko’ra materiklar va qit’alar bo’ylab o’rganiladi.

Geografik ko’nikma va malakalarni shakllantirish metodikasi bilim egallash, ko’nikma va malakani shakllanishlari bilan chambarchas bog’liq. O’quv ishlari uslubiyatini bilish ko’nikmalarini shakllantirish uchun asos bo’lib xizmat qiladi. Ilg’or geografiya o’qituvchilar va metodist o’qituvchilar amaliy tayyorgarligiga katta e’tibor beradilar. Maktab geografiyasida shakllantiriladigan ko’nikmalar mazmun jihatdan amas, balki bajarish murakkabligi bo’yicha ham farq qiladi. Har bir geografik ko’nikmani shakllantirish murakkab harakat tizimlarini talab qiladi. Odatda ko’nikma va malakalar bir paytning o’zida shakllantiriladi. Chunki amaliy topshiriqlarni bajarishda ularning ayrimlari ongli ravishda, ba’zilari bevosita, ammo ong nazorati ostida bajariladi. Geografik ko’nikma va malakalar ko’p hollarda bilim sifatini belgilaydi. Tajribalar shuni ko’rsatyaptiki, qayerda o’quvchilarda karta bilan ishlash ko’nikmasi shakllantirilsa ularning javoblari ham karta bilan bog’langan bo’ladi. Karta bilan ishlash ko’nikmasini egallay olmagan o’quvchilardagi bilim quruq, o’qituvchi bayoni yoki kitobdan o’qiganlarning takroridan iborat bo’lib qoladi. Geografik kartalarni o’qiy olishga o’rgatilgan o’quvchilardagi harakat yaqqol ko’zga tashlanib turadi. O’quvchilarda ko’nikma va malakalar hosil qilishda mashqlar tizimi katta ahamiyat kasb etadi. Mashqlar yordamida ko’nikma hosil qilishda o’qituvchi ularni bajarish yo’llarini ko’rsatadi. Keyin o’quvchilar ularni mustaqil ravishda, ya’ni o’qituvchi rahbarligida bajaradilar.

Iqtisodiy-geografik kartalarni o’qish ko’nikmasini shakllantirishda o’quvchilar iqtisodiy-geografik o’rin tushunchasini qiyinchilik bilan egallaydilar. Bu borada bir necha mashqlarni muntazam ravishda bajarish kartani o’qishni osonlashtiradi. Jamiyatning siyosiy to’zumi, tabiiy sharoit, mamlakat yoki rayon iqtisodiyotini belgilashda katta rol o’ynaydi. Shu tufayli ham iqtisodiy geografiyadan nazariy tayyorgarliksiz o’quvchilar u yoki bu ob’yektning iqtisodiy-geografik tavsifini to’ziishda qiynaladilar.[19] Kartani o’qish borasidagi ko’nikma va malakalarni o’quvchilarda to’g’ri shakllantirish maktabni tugatgandan keyin ham ularning tabiiy,

iqtisodiy va siyosiy kartalardan qiynalmay mo'ljal ola bilishini ta'minlaydi. "Dunyoning siyosiy kartasi" mavzusida o'qituvchi darslarni o'tishda metod tanlashga alohida e'tibor berishi zarur. Ko'zatuv va tajribalar shuni ko'rsatadiki, mavzu mazmunan boy materiallarga egaligini e'tiborga olib unda xilma-xil metodlarni qo'llashni taqozo etadi. Bu mavzuda mashhur didaktik olimlar I.Ya. Lerner va M.N.Skatkinlarning klassifikatsiyasini qo'llash yaxshi natijalar beradi. Ular quyidagi metodlar guruhini ilgari suradilar:

1.Izohli ilyustrativ (ko'rgazmali) metod. (hikoya,lektsiya, tushuntirish, darslik bilan ishlash, rasmlarni namoyish qilish, kino v adiafilmlar, slaydlar namoyish etish)

2.Reproduktiv metodlar. (o'tilgan materiallarni xayolan qayta tiklash asosida bilimlarni amalda qo'llash orqali ko'nikma va malakalar shakllantirish)

3. Dars materiallarini muammoli bayon etish.

4. Qisman izlanuvchan yoki evristik metod.

5. Tadqiqot metodi. (Bunda o'quvchilar faoliyati bilimlarni ko'proq mustaqil izlanish asosida amalga oshiriladi.)

Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasida eng ko'p qo'llaniladigan metodlar guruhini izohli-illyustrativ metodlar tashkil qiladi. Bu metodning asosini o'qituvchi faoliyati tashkil qiladi. O'qituvchi asosan tayyor axborotlarni beruvchi hisoblanadi. Bunda u turli ta'lim vositalaridan foydalanadi. O'quvchilarga axborot asosan lektsiya, hikoya, suhbat, savol-javob tarzida yetkaziladi. Mavzu, ko'rgazmali qo'llanmalar o'qituvchi jonli so'zni to'ldiruvchi: vositalar bo'lib xizmat qiladi. Bu metodning eng afzal tomoni shundaki, o'quvchilar bir yo'la tinglaydilar, ko'radilar, ko'zatadilar, o'qiydilar, xilma-xil ma'lumotni qiyoslaydilar va h.k. bu metod pedagogic, didaktik, metodik adabitotlarda keng va atroflicha yoritilgan. Izohli-illyustrativ metodda yetakchi o'rinni darslik matni, kartografik metodlar bilan ishlash tashkil qiladi. Ma'lumki jahon iqtisodiy geografiyasining asosini kartografik materiallar bilan ishlash va ularni tahlil qilish bilan bog'liq mavzular tashkil etadi. "Dunyoning siyosiy kartasi" mavzusining aksariyat materiallar lektsiya metodida olib boriladi. Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, bu mavzularni o'rganishda suhbatning alohida o'rni

bor. Ayniqsa darslik matni, undagi jadvallar, raqamli materiallar, kartosxemalar va boshqa ko’rgazmali materiallar bilan ishlashda uning o’rni katta.

Pedagogik texnologiyalarning ajralmas qismi bo’lgan test topshiriqlari barcha o’quv fanlarida bilimlarni tekshirishni asosiy usuli bo’lib qoldi ayniqsa XX-asrning 90-yillaridan boshlab kirish imtixonlarida keng qo’llanila boshlandi. Umumta’lim va o’rta maxsus maktablarni eng dolzarb, murakkab va muhim muammolaridan biri o’quvchilarning bilim va malakalarini tekshirishdir. XX-asrning 90-yillarigacha o’quvchilar bilim va malakalarini tekshirishni og’zaki va yozma usuli keng tarqalgan edi. Mazkur usullarning asosiy kamchiligi bilim va malakalarga baho qo’yishdagi subyektivlikdir.

Test savollari va javoblarini to’ziishning eng mux im tomonlaridan biri uning vazifasini maqsadlarini va kimlarga mo’ljallangan hamda nimalar asosida to’ziishni aniqlab olishdir. Testlar maqsadi o’quvchilar olgan bilim va malakalarini, fikrlash qobiliyatini, qaysi fanga yoki soxaga moyilligini aniqlashdan iboratdir. Har bir sinfda, turli xil murakkablikdagi bilim va malakalar tekshiriladi. Iqtisodiy geografiya kursi bo’yicha test savollariga javoblari quyidagi bilim va malakalarni tekshirish uchun to’ziilishi kerak. Testlar qamroviga qarab turlicha bo’lishi mumkin. kursning ayrim mavzulariga, bo’limlariga bo’lingan testlar masalaning mohiyatini chuqur ochib beradi, mavzular juda chuqur va aniq yoritiladi. Ko’p javobli testlar to’ziilayotganda quyimdagi qoidalarga amal qilish lozim: Javoblar eng kamida 3 ta bo’lishi kerak, javoblar qancha ko’p bo’lsa, tasodifiy baholar soni shuncha kam bo’ladi, odatda hozirgi paytda beshta javobli testlar keng tarqalgan.

Dunyo siyosiy kartasida davlatlar joylashishi va rivojlanishiga ko’ra xilma-xilligi tufayli bir-biridan keskin farq qiladi. O’quvchilar ko’zatish jarayonida kartadagi zarur belgilarga yetarlicha e’tibor bera olishlari zarur. Kartani o’qish murakkab psixologik jarayon bo’lib, uni o’qishni ikki qismga ajratish mumkin. Birinchi qism – kartani tushuntirishni o’rganish, ikkinchi qism – kartani mazmunini o’rganish. Kartani o’qish deganda avval idrok qilingan narsa va hodisalarning tasvirini shartli belgilar asosida ongimizda aks etilishidir. Kartani o’qish borasidagi

ko’nikma va malakalarni o’quvchilarda to’g’ri shakllantirish maktabni tugatgandan keyin ham ularning tabiiy, iqtisodiy va siyosiy kartalardan qiynalmay mo’ljal ola bilishni ta’minlaydi. Tajribalar shuni ko’rsatdiki, agar dars jarayonida yuqoridagi elementlardan birontasi tushib qolsa, dars sifati ko’ngiddagidek bo’lmaydi. Shu tufayli ham darslarni zamonaviy usullarda tashkil etilganda yuqoridagi elementlar albatta saqlanishi maqsadga muvofiq. Maktab geografiyasining eng muhim xususiyati shundaki, barcha sinflardagi o’quv predmetlari mazmuni nazariy va amaliy tarzdagi bilimlar bilan to’ldirib tashlangan. Ammo bunday katta hajmdagi bilimlarni o’rganishga ajratilgan vaqt deyarli yetmaydi. Shu tufayli ham geografiya darslarida yuqoridagi elementlarning barchasi qatnashadi. Bu darsni rejalashtirishda aralash tipdagi darsdan unumli foydalanish taqozo etiladi, maqsad va mazmunga mos bo’lgan ta'lim metodlarini tanlash. Masalan, agar dars ob'yektiv murakkablikka ega bo’lgan nazariy savollardan iborat bo’lgan yangi materialni o’rganishga bag’ishlangan bo’lsa, o’qituvchi hikoya yoki ma'ro’zani qo’llagani ma'qul. Bu yerda albatta asosiy savollar mustahkamlanishi kerak.

Ta'limda faol metodlarni qo’llash dars shakllari mutloq o’zgarishga olib keladi. O’qituvchi materialni bayon qilishda, o’quvchilar, bilimlarini tekshirishda, ayniqsa, faol metoddan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi kunda keng qo’llanilayotgan dars suhbat, dars konferintsiya, har xil vazifali o’yinlar, shuningdek, noan’anaviy darslar o’quvchilarni darsga tayyorlashda, darsning ayrim bosqichlarida o’qituvchining o’rnini bosa olish imkoniyatlarini yaratadi. Bunday o’quvchilarni o’qishga bo’lgan havaslarini oshiradi. Noan'anaviy darslar o’quvchilarni nafaqat bilim, ko’nikma va malakalar bilan qurollantiradi, balki ularni ijodiy izlanishga, bu tajribalarni boshqa o’quvchilarga berish yo’llarini o’rgatadi.

# II.BOB. DUNYONING SIYOSIY KARTASI MAVZUSINI O'QITISHDA NOANANAVIY DARSLARNI TASHKIL ETISHNING SAMARALI METOD VA VOSITALARI.

## 2.1. Dunyoning siyosiy kartasi mavzusini o'rganishda noananaviy metodlarni tashkil etishning samarali usul va vositalari.

Keyingi paytlarda geografiya ta'limida o'qitishning zamonaviy metod va shakllari keng qo'llanilmoqda. Chet el tajribalaridan unumli foydalanish bo'yicha ijodiy izlanishlar olib berilmoqda. Ilg'or o'qituvchilar, metodistlar darsning zamonaviy shakllarini takomillashtirish borasida tadqiqotlar uyushtirmoqdalar. Darsning har bir shakli o'quvchilarga ma'lum bilim ko'nikmalar tuzimini shaklantirishni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Hozirgi vaqtda ilg'or pedagokik tajriba asosidagi bir qancha usullar bo'lib, ularning ko'plari ilg'or (yangi) pedagogik texnalogiya asosida interfaol usullar sifatida qabul qilingan. Umumta'lim maktablarida iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarida quyidagi mavzular bo'yicha didaktik o'yinlarni ishlab chiqish mumkin: -siyosiy xarita va uning shakillanish bosqichlari. Davlatlar va ularning turlari; Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kursi bo'yicha individual va guruhli didaktik o'yinlarni ishlab chiqish mumkin.

1.Dunyo siyosiy xaritasidagi davlatlarni chegarasi bo'yicha qirqib olib, ularni joylashtirish bo'yicha o'yin tashkil qilinadi. Bunda 2-3 ta o'quvchi navbat bilan davlatlarni joy-joyiga to'g'ri qo'yib chiqadi. Kim qisqa vaqtda mazkur ishni bajarsa o'sha g'olib hisoblanadi. Bunda o'quvchilarni siyochsiy xarita va davlatlarni geografik joylarini xaritadagi bilimlari tekshiriladi.

2. Maydoni 1 mln. km$^2$ ortiq bo'lgan davlatlar soni qaysi materikda ko'p ekanligini aniqlang.

3.SHarqdan-g'arbga, shimoldan-janubga geografik o'yini.

O'qituvchi yoki o'yin boshqaruvchisi sinf o'quvchilariga Osiyodagi davlatlar nomi yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'yin ishtirokchilariga kartochkada yozilgan davlatlarni ma'lum tartibda ya'ni sharqdan g'arbga yoki shimoldan janubga tomon tartib bilan, ma'lum ajratilgan vaqt ichida yozib chiqishlari topshiriladi. Masalan,

kartochkada quyidagi davlatlar yozilgan deylik: Saudiya Arabistoni Hindiston, Xitoy, Yaponiya, Malayziya, Indoneziya, Qozog`iston, Mangoliya, O`zbekiston tartibida yoziladi. Agar sharqdan g'arbga ma'lum tartibda davlatlarning nomini yozish talab etilsa – Yaponiya, Koreya, Xitoy, O`zbekiston tartibida yoziladi. Agar shimoldan januga tomon yozish talab etilsa quyidagi tartibda Qozog`iston, Mongoliya, Xitoy, Butan, Hindiston, Shri-Lanka, Indoneziya. Shunga o'xshash geografik o'yinlarni har bir davlat iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi bo'yicha ham ishlab chiqish mumkin. Darslik illyustratsiyalari bilan ishlash. Geografiya ta'limini ko'rgazmalarsiz tasavvur qilish qiyin. Darslikdagi illyustratsiya mavzuni to'ldiruvchi va uning mazmunini boyituvchi ta'lim vositalaridan biri hisoblanadi. Geografiya darsliklarida illyustratsiyalarning xilma-xil turlari mavjud. Ularni muntazam quyidagi guruhlarga ajratish mumkin.

1. Matn mazmunini takrorlovchi illyustratsiyalar.
2. Matnni to'ldiruvchi va oydinlashtiruvchi illyustratsiyalar.
3. Matnni uning bayonida yo'q bo'lgan materiallar bilan boyituvchi illyustratsiyalar, tabiiy obyektlar, atrof muhit, ishlab chiqarishga oid bo'lgan bilimlarni to'ldirish va boyitishda bilim manbai bo'lib xizmat qiladi.

